

## **AHMAD YASSAVIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI**

*Mahammadjonova Durdona Zafarbek qizi*

*Andijon davlat chet tillari insituti talabasi*

*Karimjonova Gulbahor Kamoliddin qizi*

*Andijon davlat chet tillari insituti talabasi*

*Mahmudova Nigoraxon Abdurayim qizi*

*Andijon davlat chet tillari insituti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari va uning hikmatlaridagi insonni tarbiyalashga qaratilgan, to'g'ri yo'lni topish, komillikka erishish uchun nimalar qilish kerakligi Yassaviyning kabi g'oyalari ilgari surilgan.

**Tayanch so'zlar:** pedagogika, tasavvuf, javonmardlik, Abdurauf Fitrat, oila pedagogikasi, pedagogika tarixi

Pedagogika shaxsning tarbiyalash va rivojlantirishga, komil insonni shakllantirishga qaratilgan fan hisoblanadi. Pedagogika tarbiyaning barcha ijtimoiy, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy-huquqiy, ekologik va jinsiy yo'nalishlarini qamrab oladi hamda ularni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o'tgan asrlardan buyon muhim va dolzarbligicha qolmoqda. Tarixga nazar tashlasak, o'tgan mutafakkirlarimiz o'z asarlarida insonni tarbiyalash, nafsni yengish, komillikka erishish kabi g'oyalarni ilgari surganlar va bu yo'lda ko'plab asarlar yozib, bu uchun maslahatlar berganlar.

Shunday buyuk allomalardan biri Xoji Ahmad Yassaviydir. Hoji Ahmad Yassaviy - tasavvufning mashxur namoyondalaridan biri, turkiy xalqning buyuk shoiri bo'lgan. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Yassaviy chig'atoy tilida ijod qilgan. Onasining ismi Qorasoch Muso Shayxning qizi bo'lgan.

Yassaviy turkiy xalqlarning islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g'oyalarini omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan foydalangan. Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, Yassaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'lidir ..... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she'rlar bilan barobar". U yozgan asari nafaqat turkiy xalqlarga balki butun dunyoga nasihat bo'ladigan asar yozgan.

Ahmad Yassaviyning qarashlari uning "Devoni hikmat" asarida berilgan. Asarda hozirgi tarbiya jarayonimizda foydalanish mumkin bo'lgan juda ko'p jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Yassaviyning hikmatlarida insoniy go'zallik, insonparvarlik, ma'naviy boylik, saxovat, diyonat, xolislik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik kabi go'zal axloqiy sifatlar o'z aksini topgan. Yassaviyning pedagogik qarashlaridan pedagogika nazariyasining "Tarbiyaning qonuniyatlari, prinsiplari va metodlari", "Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni", "Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyalash", "Yagona o'quv-tarbiya jarayonida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi", "Oquvchilarning mehnat va iqtisodiy tarbiyasi", "Bolalarni oilada tarbiyalash" mavzularini o'tish davrida, pedagogika tarixidagi "VII asrdan XIV asrgacha ta'lim - tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti", "Tasavvuf ta'limotida ta'limiy - tarbiyaviy qarashlar" mavzularida, oila pedagogikasidagi bir qator mavzularni o'tishda keng foydalanish mumkin.

Yassaviyning turli insoniy sifatlar haqidagi qarashlaridan foydalanishga oid qator misollarni keltirib o'tamiz. Masalan, adibning insonparvarlik targ'ib etilgan g'oyalarini boshqa allomalarning qarashlari bilan taqqoslangan holda pedagogika nazariyasida foydalanish mumkin.

Ahmad Yassaviy insonparvarlik odamiylik, saxovat, g'ariblarga yordam masalasiga alohida e'tibor beradi. Buni bir qancha hikmatlarda ko'rish mumkin:

G'arib, faqir, yetimlarni Rasul surdi,  
O'shal tuni me'roj chiqib diydor ko'rdu  
Qaytib tushib g'arib yetim izlab yurdi.

G'ariblarni izin izlab tushdim mano.

Yoki :

G'arib, faqir, yetimlarni Rasul surdi,

Haqlar qilib aziz joning ayla qurbon.

Taom tortsang, joning bila qilg'il ehson

Haqdin eshitib, bu so'zlarni aydim mano.

Ahmad Yassaviyning nuqtai nazarida insonning dunyosi insonparvarlik bilan obod. Bu dard hamma narsadan qudratli va fayzli deb biladi .

Yassaviy hikmatlarida yomonlik, nodonlik, jaholat molparastlik kabi illatlarga qarshi kurash salbiy axloqiy g'oyalar ham o'z ifodasini topdi . U molu dunyo, mansab uchun mukkasidan tushgan qozi-imomlar, hokimlar, amaldorlarga nafrat bilan qaraydi. Doimo xalqqa haq ko'zi bilan qarashga, g'arib – yetimlarga ozor yetkazmaslikka chaqiradi.

Darhaqiqat, nafs har qanday illatning boshlanishiga sabab bo'ladigan insondagi ruhiy-ma'naviy jihatlardan biridir. Uni yoshlikdanoq tarbiyalash, illat emas, fazilat sifatida shakllantirish muhim ijtimoiy, pedagogik vazifa sanaladi.

Sharqona ta'limning maqsadi faqat bilim emas, balki axloqan yetuk shaxsni ham tarbiyalashdir. Ahmad Yassaviy hikmatlari aynan shu maqsadda xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotta savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, yovuz insonning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakatning inqirozga yo'l tutishini alohida qayd etib o'tadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ular asosida barcha insoniy fazilatlarni shakllantirish, ma'rifatni targ'ib etish va ziyoli insonlarni ulug'lash asosiysi komil insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilganligiga guvoh bo'lamiz. Komil inson tarbiyasi esa har qanday davr pedagogikasining birlamchi maqsadi bo'lib qoladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ahmad Yassaviy, Ibrohim Haqqul -T.:G'afur G'ulom nashriyoti, 2001.
2. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
3. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
4. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
5. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
6. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
7. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
8. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
9. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
10. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
11. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.
12. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – C. 7128-7131.
13. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
14. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.